

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ

ЖИЗЗАХ-2023

**Ilmiy – amaliy anjuman
materiallari**

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu'balar)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusidagi Ilmiy – amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 - shu’balar)



ЖИЗЗАХ-2023

YŷK: 821.512.1993KBK: 83.3(5ŷ)

Mazkur to'plam Alisher Navoiyning 582 yilligi hamda Z.M.Boburning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 25- yanvar № PK-20 "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash" to'g'risidagi Qarori bilan tashkillashtirilgan

"BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ"

mavzusidagi Ilmiy-amaliy anjumanining 1,3,4,5 shu'ba materiallari asosida tayyorlandi.

To'plam adabiyotshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar va o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari hamda magistrlar uchun mo'ljallangan.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

JDFU dotsenti, f.f.doktori

JDFU dotsenti, f.f.f.(PhD)

JDFU dotsent v/b, f.f.f.d (PhD)

Soatova Nodira Isomitdinovna

Salimova Dilnavoz Akmalovna

Turopova Parizod Shavkat qizi

Bosh muharrir:

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.nomzodi, dotsent

Soyipov Sunatulla Normatovich

Mas'ul muharrir:

JDFU dotsenti, f.f.doktori

O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi

kafedrasi mudiri v.b., f.f. f.d.(PhD)

Soatova Nodira Isomitdinovna

Jo'rayev Murodilla Alishboyevich

Taqrizchilar:

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

mudiri, f.f. doktori, professor

Usmonjon Qosimov

O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi

kafedrasi dotsenti, f.f.nomzodi

Karimova Yulduz Akulovna

Ushbu to'plam Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Ilmiy Kengashining 2023- yil 6-fevraldagi 7-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-1992-5-4

© "JDFU" 2023

shod etgan farzandlar bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida xalq koriga kamarbastalar. Domla farzandlari Ulug‘bek, Tohirbek, Boburbek haqida faxr bilan gapirar edilar, albatta. Ammo oilaning yagona qizi Hulkar haqida gapirganlarida o‘zgacha yayrab ketardilar, yuz-u ko‘zlarida qizlariga bo‘lgan mehru muhabbatlari quyoshdek balqir, ovoz ohanglari ham o‘zgacha tus olardi. Domlani tinglab turib u kishiga chin dildan havas qilar ekanman, beixtiyor yodimga shoirning: “Qiz degan ko‘ngilning qonidan bo‘lur...” degan misralari kelar edi.

Domla vafotlaridan sal oldin komil musulmon sifatida Haj amallarini ham ado etib kelgan edilar. Alloh ustozning barcha ezgu diniy va dunyoviy amallari ajr-u mukofotini bersin.

Sadoqatli inson, zukko olim, mohir pedagog, namunali oila sohibi Qodir hoji Pirmatov sadoqatli shogirdlar, qobil zurriyodlar ko‘nglida uzoq yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oxunova E. Biz suv ichgan daryolar. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2006.
2. Sokin daryo shiddati (To‘plovchi: Ibragimova Gulchehra). –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

SAIDA ZUNNUNOVA LIRIKASIDA ONA OBRAZI TASVIRI


*Surayyo Eshonqulova, ChDPU dotsenti
filologiya fanlari doktori*

Insonni, uning ma‘naviy olamini kashf etadigan shunday bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san‘ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta‘riflanishi bejiz emas. Xalqimiz orasida mana shu g‘oyat mashaqqatli sohaga butun hayotini va noyob iste‘dodini bag‘ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan, o‘lmas asarlar yaratgan buyuk so‘z san‘atkorlari yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot so‘z san‘ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. Bunda xalqimiz uchun xizmat qilgan shoir va yozuvchilarning o‘rni beqiyos. Zamonamizning serqirra ijodkorlaridan biri, nasrda va nazmda tanho adibamiz Saida Zunnunova ana shunday zabardast qalam sohiblaridan biridir.

O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulom Saida Zunnunova haqida quyidagilarni yozgan edi. “... Yaqinda o‘n besh – yig‘irma yillar ilgari adabiyotimiz o‘zining yetuk shoirlarini qo‘msab kutardi. Ular xalqimiz orasida, xalqimizning ulug‘ ijodkor tafakkurini ijod qilg‘uvchilar safida bugun mavjuddirlar.

Hozirgi so‘zim Saida to‘g‘risida, chunki bu shoiraning shu voyaga yetib keluvida kaminaning ham ozgina murabbiyligi bo‘lgan. Saidaning birinchi kitobini o‘qib “Qizingiz yozdi” deb ism qo‘yganman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi




niyati bekor ketmadi. U xotin – qizlarga xos nazokat, ifor taratuvchi lirikasi bilan dillarimizni erkalatib, xordiqalarimizni yozib, mehnatga rag‘batimizni toblantirib, idrokimizni go‘zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo‘lib yetishdi” [2].

Saida Zunnunova poetikasida jamiyat va oilada ayolning o‘rni, baxtli oilaviy hayot, ayol va uning taqdiri haqida qayg‘urish, og‘ir damlarda dardini bo‘lishish, vafodorlik, Ona va farzand, ona qalbi va mehri kabi mavzularda ijod qilgan. Bir so‘z bilan aytganda, shoira ijodining bosh qahramonlari ko‘pincha ayollardir. Shoira ijodining g‘oyaviy-badiiy mundarijasidan ko‘rinib turibdiki, shoira asarlarining tarbiyaviy-estetik ahamiyati katta, sababi millatimizning o‘zbek qizlari baxtli oilaviy hayot sirlarini bilishi, Ona va farzand munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirishi jamiyatimizda ayollarning muhim ahamiyatini belgilaydi. Ushbu mavzularni e‘tiborga olgan holda, maqolada Ona va farzand, ona qalbi va mehri Saida Zunnunova poetikasida qay darajada o‘z ifodasini topganligini tahlil qilamiz.

Ma‘lumki, lirika adabiyotning eng ta‘sirchan janri. Zamondoshlarimizda oliyjanob insoniy fazilatlarini tarbiyalash va ma‘naviy dunyoni boyitishda lirikaning ahamiyati biqiyos. Adabiyotshunos D.Quronov shoir va lirik qahramon munosabatiga ko‘ra lirik asarlarni avtopsixologik va ijroviy lirikaga ajratadi. “Avtopsixologik lirika deganda, lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo‘lgan she‘rlar tushuniladi” [3;171]. Mana shu fikrga asoslanib qaraydigan bo‘lsak, *Saida Zunnunova she‘rlarining aksariyati avtopsixologik lirikaga mansub ekanligi ayon bo‘ladi. Chunki ularda lirik qahramon bilan shoira shaxsiyati aksar hollarda mos tushadi yoki bir-biriga juda yaqin turadi [1;58].* Shoiraning “Ona” (1949), “Doya”, “Qizimga” (1960), “Alla” (1960), “Muncha yaxshisan qizim” (1961), “Qizim haqida” (1961), “Qizimga”(1963), Chumolining uyasini buzgan bolaga”, “Dadam xotirasi” (1964) kabi ko‘pgina she‘rlari, qasidaları ona va farzand, onalik qalbi va mehri mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, *avtopsixologik lirikaga tegishli ekanligiga guvohi bo‘lamiz.* Shuni aytish joizki, Saida Zunnunovaning she‘rlari qaysi mavzuda ekanidan qat‘iy nazar voqea-hodisalar ayol qalbi orqali idrok etiladi, ayollarga xos hassoslik bilan mushohada yuritiladi. U ayol ruhiy olamini butun nozikligi va murakkabligi, his-hayajonlari, qalb tebranishlari, tovlanishlari bilan berishga urinadi, shunga loyiq so‘zlar qo‘llaydi, obrazlar tanlaydi. Shoira ayol baxtining eng avvalo muhabbatda, farzand tarbiyasi va oilada deb bilganini ijodiyotidagi mushohadalari tasdiqlaydi. Unincha, ayolning baxti muhabbat bilangina mukammal bo‘la olmaydi. U o‘zini baxtli sanashi uchun Alloh uni farzand atalmish bebaho ne‘mat bilan ham siylashi kerak. Onalik baxti haqida hatto sevisish yoki sevilish u qadar qimmatga ega bo‘lmasligi mumkin. Shoira ayolning jamiyatdagi faolligini, o‘z kasbini sevishi va sadoqatini yoqlaydi. Ammo ayol uchun undanda muhim vazifasi borligini doim yodda tutishini uqtiradi:

*Bezovta hayolga asirman ba‘zan,
Qolgisi kelmasa ishdan kelinchak.
Bu yaxshi xislatu va lekin yomon,
Bir chetda bosib yotsa belanchak, –*



deya ayol uchun farzand mehrining nechog‘li zarurligini ta’kidlaydi. Bunday shaxsiy qarash ijodkorning hayotiy falsafasi darajasiga ko‘tarilib, u yaratgan qahramonlar tabiatiga ham ko‘chib o‘tgan. “Qahramon – bu quyulma” [5;81]. Saida Zunnunova lirikasida Ona obrazining hayotda, bizningcha, uchta quyulmasi – prototipi mavjud:

1. **O‘z onasi tasviri;**
2. **Motasaro ona – matonatli ayol kechinmalari talqini;**
3. **Shoiraning o‘zi Ona sifatida.**

Saida Zunnunova ijodidagi hayoti va o‘lim, insonning turfa tuyg‘ulari, ruhiy dunyosi, kechinmalari, onalik baxti va farzand mehri, tabiat haqidagi she‘rlarning hamma-hammasida avtobiografik fakt “ruhiy tarix” – tayanch nuqta, uchish maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Sababi ijodkor o‘zgalar dardu hayajonini xuddi o‘zlarinikidek qabul qiladi. Aytmoqchi bo‘lgan gaplarini o‘sha dardlarga, hayajonlarga esh qilib yuboradi. Buni dunyoni, voqelikni qabul etishda ayol ijodkorlarda aqliy mushohadaga nisbatan hissiyotning kuchliligi va ular tabiatiga xos bo‘lgan ta’sirchanlik bilan izohlash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Lirik qahramon ichki olami, ruhiy holati, kechinmalarining tabiat hodisalari, manzaralari bilan uyg‘un holda berilishi shoira she‘rlarining jozibasini, ta’sir kuchini yanada oshiradi. Saida Zunnunova “Onajon” nomli she‘rida:


*Yana yillar o‘tar, bahorlar balqir,
Yana ko‘zlarimda ranglanar gullar
Qalbimni bitta o‘y kemirar, yulqir,
Yo‘q endi visolga eltuvchi yo‘llar
Nahotki, siz yo‘qsiz endi, onajon, [6] –*

deb yozadi. Qayta-qayta bahor kelishi yoki ko‘zlarida gullarning ranglanishi lirik qahramonni quvontirmaydi. Negaki, visolga eltuvchi yo‘l yo‘q, ona yo‘q. Bu mahzunlik she‘rni o‘qigan o‘quvchi ko‘ngliga ham kirib boradi. Ona timsolida o‘zbek ayolining xarakterini ochib beradi. Ona obrazi o‘zbek ayollarining umumlashma tipi hisoblanadi. Bu shoira ijodidagi ona obrazida onaning o‘zigagina xos betakror xarakter xususiyatlari bilan birga, u yashagan davr onalari uchun umumiylik kasb etgan xususiyatlar ham mavjud.

Saida Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” lirik dostonida ham onaning shodligi va hijroniga hamohang uning matonati, irodasi kuylanadi. Ana o‘sha iroda, matonat, ayniqsa, urush davri ayollariga xos xususiyat edi.

*Ha, bu bilardim, qismatdan o‘zga
Kimni ham bo‘g‘ardim o‘sha damlarda
Fashist olis edi, qo‘l-u ko‘zimdan
G‘ajib tashlay desam bu alamlarga [6].*

Saida Zunnunova “Ona” she‘rida dunyoda eng ulug‘ zot – onaning tipik timsolini yaratib, uning ajoyib hislatlarini qalbidan kuylaydi. She‘rda shoira lirik qahramonining onasi haqida fikr yuritadi. Ona o‘z o‘g‘lini sevib, ardoqlab o‘stiradi. Ulg‘aygan o‘g‘il Vatan himoyasiga ketadi va jangda qahramonona xalok bo‘ladi. Ona o‘g‘lini vafot etganiga ishongisi kelmaydi, uni hamon kutadi. Har oqshom, har sahar yo‘liga qaraydi. Lirik qahramon onaga murojaat qilib deydi:



*Shu aziz tuproqda ona, o'g'lining
Yigit nafasini bor harorati,
Shuning - chun bu tuproq muqaddas ulug'
Shuning - chun bu tuproq jonning rohati
Shu aziz tuproqda, uning jasadi
Bosh egib o'tmaydi undan yo'lovchi . . . [6].*

She'rda shu bugungi kun motamsaro ona muhabbatidan, agar toshga shu mehr bilan ona boqsa u ham eriydi, uning mehr otash oldida osmondan quyosh ham uzilib tushishi mumkin, degan g'oya berilgan.

Shoira yaratgan qahramonlar ham baxtini xuddi uning o'zidek tushinadilar va shunday baxt uchun hamma narsaga tayyor turadilar. Shunga asoslanib o'zbek adabiyotida hali hech bir shoira oilaviy baxt haqida Saida Zunnunovachalik tabiiy va hayotiy yoza olmadi, deya olamiz. Chunki bunday mavzudagi she'rlarning lirik qahramoni oilaviy baxtga muyassar bo'lgan ayol-shoiraning o'zidir.

Shoiraning "Qizimga" she'rida onaning farzandga bo'lgan qaynoq muhabbati, tunlari kechirgan holati, farzandini o'z xalqi, Vataniga muhabbat ruhida, aqlli, sog'lom qilib o'stirish, haqiqiy insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Shoira poetik timsol yaratishda detallardan unumli foydalanadi. Detalning zamiri – hayotdir. Shoira o'z she'rlarida ishlatilgan detalning asar g'oyasini ochish uchun zarur bo'lgan vositaga aylantira olgan. Bu holni "Chumoli uyasini buzgan bolaga" she'rida ochiq ko'rish mumkin. Unda shoira bolalarning o'yinidan bir onni gavdalandirgan, bekordan – bekorga chumolini uyasi buzayotgan bolaga qizchani o'gitini tasvirlagan:

*-O'ldirma ayasi yig'laydi, axir,
Ayasi yig'laydi, qo'y, tegma, bor ket! [6].*


Shoira she'rida kichik detal vositasida katta xulosa chiqargan. She'rdagi lirik qahramon farzandining onaning o'ylashidan quvonadi. Saida Zunnunova bu she'rida farzandlar qalbiga onani o'ylash, unga shavqatli bo'lishi hissini tarbiyalaydi.

Saida Zunnunovaning ona va farzand mavzusida yozgan she'rlari orasida "Alla" qasidasi [4;10] alohida o'rin egallaydi. Shoira bu qasidani onasiga bag'ishlaydi:

*Qaydan so'z boshlayman, dunyo umrining
Qaysi bir jildini varaqlamayin
Yotgan cha xotiram, mehrim, shuurim
Onalar nomini ardoqlagumdir.*

Asar yetti bo'limdan iboratdir. Ularning har birida onalar xarakteridagi asosiy xislatlardan biri madh etiladi:

*Yo'q uning yig'isini eshitmayin hech
Inson bu qiynoqqa bo'lmasin duchor
Unga sig'innurman ham erta, ham kech
Uning duosisiz ko'karmoq dushvor
Odamlar, odamlar, bo'linglar xushyor!*



Shoira ona allasining sehri haqida fikr yuritadi:

*Tengsiz bu san'atni qo'zg'atgan ovoz,
Mainu va mudroq ona allasi.
Subh – sabih hamisha uning bilan soz,
Uning bilan go'zal sahar pallasi.
U alla aytmasa, tonglar otmaydi,
U alla aytmasa, qo'yosh botmaydi . . .
Alla tinglamasa odam bolasi
Qaerdan oladi muhabbat kuchin
Tilaklar, orzular bo'ladi xosil
Onajonlar alla aytgani uchun.*

Saida Zunnunova ona allasini ulug'larkan, onasi poyiga dunyo gullarining eng asllarini sochishini, ko'ldan nilufar keltirishini, so'ngra uning quchoqlariga bir damgina singishni va alla tinglashni istaydi:

*Bor bo'lsin onalar, bor bo'lsin farzand,
Yashasin hamisha olamda Alla.*

Ijodkorga onalik muhabbati cheksiz ilhom beradi, she'rlari yangi-yangi jilo, ming xil ohang, joziba baxsh etadi:

*Meni katta shoir qildi qizginamning kulgusi,
Muhabbati she'rlarimni birdan qildi istilo.
Uning bilan jozibada jilva qildi kelgusi
Har jilvada ming xil ohang, ming xil bo'yoq, ming jilo.*


Shoir "Qizginam" she'rida farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatni ifodalaydi, qiziga o'zining eng ezgu tilaklarini tilaydi. Har bir ona farzandini sevib ardoqlarkan, uning kamolini ko'rishni, unga hatto yellar ham ozor bermasligini istaydi. Doim farzandi atrofida parvona bo'ladi. Jajjiginasining har bir hatti-harakatidan dildan quvonadi:

*Qizginam, ishlaring, tashvishlaring ko'p,
Mening baxtim bo'lgan janjal, so'roqlar,
Mening baxtim bo'lgan erkaliklaring,
Mening baxtim bo'lgan xushbo'y dudoqlar.*

*Gard yuqmagan uyni nima qilardim,
Dam-badam yig'masam o'yinchoqlaring.
Xotirjam uyquni nima qilardim,
Yopmasam, ustringni ochgan chog'laring.*

*Ba'zan polga tushgan jajji izlaringdan
Baxtimga boqqanday qilmay huzur.
Oppog'im, o'rgilay mehnatlaringdan,
Oppog'im, hamisha sog'-salomat yur [6].*

Shoira bisotida bunday farzandiga atalgan, ayol qalbi navolarini ifodalagan she'rlar juda ko'p. Bu jihatdan shoiraning qiziga atalgan allasi ayniqsa, diqqatga sazovordir. Allada onaning farzandiga bo'lgan bor mehr-muhabbati, eng sara



soʻzlar bilan erkalashi va farzandiga atalgan eng ezgu va samimiy tilaklari ifodalangan:

*Oyning shuʻlasi suvda,
Hamma narsa uyquda.
Mehrim tovlanib ketib,
Kuylagim kelar juda.
Uxla qunduzim, alla.*

Ha, ona uchun dunyoda farzandidan ham azizroq inson yoʻq. Ona farzandi uchun har narsaga tayyor. Uning har bir buyrugʻi onalar uchun qonun. Farzandi nima qilmasin, onaga bular notoʻgʻri boʻlib tuyulmaydi.

Aksincha, farzandining bilib-bilmay qilgan hatti-harakati onalarga bir olam shodlik baxsh etadi. Boisi farzandining begʻuborligi, pokligi onaga kuch-quvvat bagʻishlaydi. Saida Zunnunova “Yana qizimga” sheʼrida quyidagilarni yozadi:


*Yolgʻondan boʻlsa ham yoʻq, yoʻq, yigʻlama,
Bir tomchi yosh koʻrmay koʻzingda, qizim.
Umringga yuz bahor zamondosh boʻlsin,
Kelaqol, koʻtaray baxtim, azizim.*

Lekin farzandini shunchalar ardoqlagan, suygan ona uning erka-tantiq boʻlishini istamaydi. Shuning uchun ham qiziga nasihat qiladi. Bu nasihatda onaning qizining taqdiri haqida, uning kelajagi haqida naqadar qaygʻurishi, qiziga bor umid va ishonchini tikkanligi, qizi faqat onaning farzandi boʻlmay, balki el-yurt farzandi boʻlishi ham kerakligi, el koriga yarashi ham mujassamlashgan:

*Mayli, erka boʻlu tantiq boʻlmasin,
Yaxshi-erka boʻlur doim eliga.
Yomon-erka boʻlmas, ensa qotirar,
Yaxshi yogʻdek yoqar odam diliga.
Bilasanmi, qizim, bu koinotda
Onaning orzusi quchmagan baxt yoʻq.
Onaning hayoli yetmagan boʻshliq,
Onaning hayoli toʻxtagan vaqt yoʻq.
Ana shu tinmagan orzu-oʻylarim,
Mehnat, muhabbatim, mehrim haqiga-
Bir gʻubor koʻnmasin, desang, oppogʻim,
Erka boʻl hamisha yurtning, xalqingga [6].*

Shoira oʻz ijodida ona va farzand, ona qalbi va mehri mavzulariga qayta-qayta murojaat qiladi. Bu mavzuni biror xodisa – voqeani tasvirlash yoki biror konkret timsolini yaratish orqali yoritadi. Shoiraning har bir sheʼri oʻziga xos orginal boʻlishi bilan birga, tasvirlayotgan voqea, biri ikkinchisining davomi sifatida maydonga keladi.

Xulosa qilib aytganda, lirik qahramon tuygʻularining boricha tasvirlanishi, chuqur samimiyat ifodasi Saida Zunnunova sheʼriyati uchun xosdir. Shoira ijodidagi oʻziga xoslik ijodkor sheʼriyatidagi fazilatiga aylanadi. Chunki qalamga olinganlarni barchasi oʻz dardi, oʻz baxti, boshdan kechirganlari. Uning deyarli barcha sheʼrlari sodda uslubda bitilgan, tili ravon, jimjima, tushunarsiz ifodalardan holidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erhasheva Sh. Saida Zununova she'riyatida ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon muammosi: Филол. фан. ном. ...дисс. –Т., 2008.
2. G'afur G'ulom. O'zbekiston madaniyati. 1965. 15-avgust.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Andijon: Hayot, 2002.
4. Saida Zununova. Alla //Sharq yulduzi. 1972. №8.
5. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. –Т.: Fan. 1983.
6. Zununova S. Tanlangan asarlar. –Т., 2001.

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDA JARGON VA ARGOLARNING LEKSIK-GRAMMATIK QO'LLANISHI

*Abduvali Musayev, JDPU dotsenti
filologiya fanlari nomzodi*


Har bir til asosan o'z leksik lug'at tarkibi va grammatik qurilish bazasida o'z taraqqiyot qonunlari bilan o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, turli tillarda gapiruvchi jamoalarining o'zaro aloqa natijasida ham tillar bir-birini boyitib boradi. Jamiyatimiz rivojlanishi yangi texnologiyalarning kirib kelishi, xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bir til qurilishining elementlari (asosan lug'aviy birliklar, grammatik birliklar) ikki tilga kirib boradi, shu tilga kirib, singib, uning o'z elementiga aylanib qoladi.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan qism ham mavjud, albatta. Buni bir tomondan, so'zlarning leksik ma'no taraqqiyoti natijasida sodir bo'lgan farqlanishni ko'ramiz.


O'zbek sheva va dialektlarini o'rganishda keng tarqalgan bu aspekt til sistemasi elementlarini (fonetik va leksik-grammatik xususiyatlari) o'z statistikasida tekshiradi, ya'ni ba'zi fonetik hodisalar va grammatik formalarning qanday paydo bo'lganligidan qat'iy nazar, tilining hozirgi mavjud sistemasini tashkil qiladigan va faqat tilning taraqqiyot bosqichida mavjud bo'lgan til protsesslari qayd qiladi [1;174].

Mahalliy hududiy dialektlarning so'zlari (sheva so'zlari) dialektizm sanalsa, sinfiy dialektning so'zlari jargon deyiladi. Jargonlar sinfiy ayrmalikni ko'rsatib turadigan, yuqori tabaqa shaxslar uchun tushunarli bo'lgan so'z va iboralardir.

Jargonlar o'zbek tilining o'z so'zlaridan, ba'zan boshqa tillardan (arab va tojik tillaridan) olinib qo'llanadigan so'zlardir [2;131].



	Kotibi: <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Hulkar Ne'matova</i>	
16.	Nodira Soatova. Qissada ruhiy - psixologik kechinmalar tasviri	87
17.	Yulduz Karimova. Buyuk qoyalarning poyidadurmiz...	96
18.	Surayyo Eshonqulova. Saida Zunnunova lirikasida ona obrazi tasviri	99
19.	Abduvali Musayev. Tohir Malikning “Shaytanat” asarida jargon va argolarning leksik-grammatik qo'llanishi	105
20.	Dilnavoz Salimova. Tavsifiy lirikaga xos tavsif vositalarining estetik ahamiyati	107
21.	Murodulla Jo'rayev. “Oltin devor” komediyasida muallifning xarakter yaratish mahorati	111
22.	Shirin Aldasheva. Shuhrat to'rtliklarida metafora	115
23.	Parizod Turopova. Jizzax adabiy muhitining shakllanishi xususida ba'zi qaydlar	118
24.	Zuhra Mamadaliyeva. Madaniyat sohibi	123
25.	Shoxida Siddiqova. Har narsaning qazosi bor, ammo fursatlarning qazosi bo'lmas...	124
26.	Sohib Boysinov. Turkiy adabiyotning jahon madaniyatidagi o'rni	126
27.	Parizod Turopova, Abduljalol Xudoyberdiyev. Turob Maqsud ijodida milliylikning badiiy ifodasi	129
28.	Gulmira Hamroyeva, Muhlis Tojiboyeva. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasining yaratilish tarixi va milly obraz yaratish mahorati	135
29.	Dildora Hakimova. Shukur Xolmirzayev ijodida ijtimoiy masalalarning ifodalanishi	140
30.	G'ayrat Isroilov. Sakkoki devonining na't tahlili	144
31.	Gulbahor Qurbonova. Nurali Qobul ijodida urush voqealarining badiiy talqini	152
32.	Sobira Tirkasheva. Diniy-adabiy manbalarda Yusuf a.s. siymosi va unga aloqador syujetlarning dostonlardagi talqini	157
33.	Mohira Sobirova. O'qituvchilik kasbi va uning “Ikki eshik orasi” romanidagi talqini	161
34.	Shoxista Axmedova. Haqqush qichqirig'i dostonining tadriji	163
35.	Sarvinaz Alibekova. Inson ruhiyati va tabiat tasviri ustasi	168
36.	Maftuna Yusupova. Tahlil va talqin	170
37.	Mohira Hamrayeva. “Zarbulmasal” ning g'oyaviy mazmuni va badiiyati	173
38.	Gulimoh Donaboyeva. Adabiy ta'limda shuhrat ijodini o'qitish	177
39.	Hulkar Ismailova. Maqol – odob va axloq qoidalarini o'zida jamuljam etgan dono gap	186
40.	Dilnoza Ilhomova. Badiiy adabiyotda sarguzasht asarlarning o'ziga xosligi	189



“BIZ SALAFLAR IZDOSHLARIMIZ”

mavzusiga bag‘ishlangan Ilmiy-amaliy anjuman materiallari

(2-kitob, 1,3,4,5 shu’ba)

Muharrir: N.Soatova
Musahhih: D.Salimova
Sahifalovchi: G‘.Israilov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013-y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 09.02.2023.
Formati 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 67.0 Adadi 100. nusxa. Buyurtma №12.

Manzil: 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sharof Rashidov ko‘chasi, 4-uy

Bog‘lanish: +99890 311 3555, +99899 553 0760

